

Yoshlar Tarbiyasida Mediasavodxonlik Madaniyatini Takomillashtirish Omillari

Iroda Berdiyeva

O‘zDSMI tayanch doktoranti

Annotatsiya: Bugungi kunda yoshlar tarbiyasida mediasavodxonlik madaniyatini shakllantirish muhim sanaladi. Buni takomillashtirishning eng samarali usullarini topish esa zamon talabiga aylandi. Maqolada mediasavodxonlikning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati haqida fikr yuritilib, tahliliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Mediamadaniyat, yoshlar, intellektual, taraqqiyot, sivilizatsiya, tarbiya, mediamakon, axloqiy sifatlar.

Bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘g‘il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma’naviyatli bo‘lib ulg‘ayishi uchun zarur shart-sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofliğini asrash – davr talabi” mavzuidagi anjumanda so‘zlagan nutqida yosh avlod tarbiyasi haqida alohida to‘xtalib o‘tgan edi.

“Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”, deya ta’kidladi Prezidentimiz.¹ Darhaqiqat, aynan bugungi davrda yoshlarimizning to‘g‘ri tarbiya olishi, ularga sifatli ta’lim berilishi, ota-onalarning o‘z bolasi taqdiriga befarq bo‘lmasligi masalasi ustuvor vazifalardan biri bo‘lib turibdi.

Barchamizga ma’lumki, inson bu dunyoga kelgan onidan boshlab ko‘rish, eshitish, his qilish orqali axborot olishni boshlaydi. Tabiiyki bu jarayon kishi umri davomida uzluksiz tarzda davom etadi. Axborot olishga va uni qayta ishlab, uzatishga bo‘lgan ehtiyoj tufayli unga bugungi kunning eng qimmatbaho “mahsuloti” sifatida qaralmoqda.

Shu o‘rinda, “Axborot” so‘zining izohiga to‘xtaladigan bo‘lsak, axborot- biror voqea haqidagi batafsil xabar, ma’lumotdir. Har qanday xabar, ma’lumot o‘z auditoriyasi tomonidan qabul qilinadi,

¹ Shavkat Mirziyoyev: yoshlar tarbiyasi – eng muhim masalalardan. Standart.uz 2017/16/06.

qayta ishlab, uzatiladi. Bunda bevosita axborotning qabul qiluvchisi “Axborot iste’moli” jarayonida ishtirok etadi. Bunday jarayonlarda ishtirok etuvchilarning ko‘pchiligi albatta yoshlardir. Taraqqiy etib borayotgan zamonda har kim o‘zi istagan ma’lumotni istalgan manbaadan olish imkoniyati tug‘ildi. Ya’ni, axborot ulashishda yirik generator vazifasini o‘tovchi OAVning ham ko‘lami kengaydi. Buning albatta foydali tomonlari ko‘p bo‘lishi bilan birga yoshlarni dunyoqarashiga salbiy ta’sir etuvchi omillari ham yo‘q emas. Diniy ekstremizm, terrorizm, odam savdosi va albatta “ommaviy madaniyat”.

YUNESKONing media va axborot savodxonligi to‘g‘risidagi nashrlarida ta’kidlanadiki, “Media va axborot savodxonligini o‘zlashtirgan fuqarolar: 1) tegishli texnologiyalardan foydalangan holda axborot va mediakontentni olish, baholash, yaratish va tarqatish layoqatiga ega bo‘ladi”.² Bu odamlar: 2) o‘zlarining axborot va OAV bilan ishlash sohasidagi huquqlarini, shuningdek, o‘z ixtiyoriga bepul, mustaqil va turli-tuman axborot va mediatizimlar berilishi bo‘yicha talab uchun o‘z mas’uliyatini tushunadi va biladi. Media bilan munosabatda ular: 3) axborot va media ta’minotchilari roli va funksiyasini, shuningdek, ushbu funksiyalarning amalga oshirilishi shartlarini tushunadi. Bu hali hammasi emas, o‘zaro axborot almashishning faol ishtirokchisi bo‘lgani holda, ular: 4) bilim yaratishga va ularni keng ko‘lamda tarqatishga qodir bo‘ladi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yurtimizni rivojlantirishda va kelajak uchun poydevor barpo etishda doimo yoshlarga suyanadilar va ishonadilar. Ularning sifatli ta’lim olishi, ijtimoiy-iqtisodiy ta’minoti va kelajakda o‘z o‘rnlarini topishlari uchun har vaqt o‘z e’tiborlarini ayamaydilar. Aynan, Humo Arenada bo‘lib o‘tgan yoshlar forumida ham buni yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda birinchi bor o‘tkazilayotgan ushbu anjuman bilan barcha yoshlarni tabriklab, “Men har gal yoshlarimiz bilan uchrashganimda sizlarning g‘ayrat-shijoatingizdan kuch-quvvat olaman, ko‘nglim tog‘day ko‘tariladi. Har biringiz jonajon Vatanimiz va xalqimizga sidqidildan xizmat qilish orzusi bilan yonib yashayotganingizni yaxshi bilaman. Sizlarni O‘zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasi sifatida qadrlayman”, – deya Yangi O‘zbekiston yoshlariga qarata samimiy munosabat bildirib o‘tgan edilar. Hayotda endigina o‘z yo‘lini izlayotgan, har imkoniyatga umid bilan qarayotgan yoshlar uchun Prezident bilan uchrashuv – katta voqea bo‘ldi.

Prezidentimiz forumdagi nutqlaridan birida yoshlarga qarata – “Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo‘l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g‘ayratingiz, azmu shijoatingizga suyanamiz. Barchangiz yaxshi bilasiz, bugun o‘z oldimizga ulkan marralar qo‘yganmiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Biz oila, maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo‘lg‘usi Renessansning eng muhim bo‘g‘inlari deb hisoblaymiz. Shu sababli ayni ushbu sohalarda tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Ishonamanki, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda sizlar singari fidoyi va vatanparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, munosib hissa qo‘shadilar”³, deya ta’kidladilar, ya’ni biz yoshlarga katta ishonch bildirilyapti bu ishonchni to‘la-to‘kis oqlash bizning burchimiz desak, adashmagan bo‘lamiz.

Media va axborot savodxonligi — bu ijodiy faoliyatda barcha zarur vositalardan foydalangan holda axborot va media mahsulotlarini samarali olish, tahlil qilish, tanqidiy baholash, talqin qilish, foydalanish, yaratish va tarqatish imkonini beradigan bilim, ko‘nikma, munosabat, malaka va amaliyotlar majmuidir. Bugungi kunda dunyo ommaviy axborot vositalarida axborotni tanlash va to‘g‘ri baholash qobiliyati dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Xo‘sh, mediasavodxonlik nima? Nega bugun uning ahamiyati tobora ortib bormoqda? Axborot oqimining bir necha barobar tezlashishi, ijobiy ma’lumotlar bilan bir qatorda salbiy xarakterdagi axborotning ko‘payishi mediasavodxonlikka ega bo‘lish zaruratini qo‘ydi. An’anaviy tarzda mediasavodxonlik shaxsning adabiy asarlarni tahlil eta olish va sifatli matnlarni yaratishidan iborat

² Медиа-и информационная грамотность в обществах знания/Сост. Кузьмин Е.И., Паршакова А.Б.- М.:МЦБС,2013.-С.29.

³ Yangi O‘zbekistonni yoshlar bilan birga barpo etamiz! Yuz.uz rasmiy sayti. 2020-yil 26-dekabr.

bo'lgan. Bugun mediasavodxonlik – axborotning nega va nima uchun uzatilayotganligini bilish demakdir. Buni bilish ayniqsa yoshlarimiz uchun juda muhim hisoblanadi.

Media savodxon inson o'ziga bu axborotni kim va nima maqsadda yaratgan? Ushbu xabar men uchun zarurmi? Degan savolni bera olishi va to'g'ri xulosa chiqarishi, unga nisbatan tanqidiy yondashishi lozim. Ayniqsa bu orada yoshlar xushyorlikni mazkur savollar nafaqat siz oilangiz davrasida televizor ko'rayotgan, mashinada radio eshitayotgan yoki internetdagi xabarlarini ko'rayotgan paytda berilishi, balki har qanday axborotni qabul qilayotgan va unga baho berayotganda ham kerak. Bugungi axboriy muhitni tushunishda mediasavodxonlik muhim ahamiyat kasb etadi. Xo'sh, mediasavodxonlik nima uchun kerak?

Avvalo:

- Huquqiy demokratik jamiyatimizning to'laqonli, faol fuqarosi sifatida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyatini tushunish;
- OAV orqali uzatilayotgan va qabul qilinayotgan kundalik axborotni saralash ko'nikmalarini shakllantirish;
- Axborot orqali inson ongini boshqarishga yo'l qo'yimaslik va har qanday vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish;
- Insonning vizual obrazlar ta'siri ostida ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgarishlarini tahlil eta olish va vizual xabarlar ostida beriladigan ko'rinmas ma'lumotlarni “o'qiy olish”;
- OAV orqali beriladigan matnli kommunikatsiyalar mohiyatini tahlil etish;⁴

Axborot qayerdan, kim tomonidan va nima maqsadlarda uzatilayapti, kimning manfaatlarini o'zida aks ettirayapti, degan savollarga javob topa olish uchun zarurdir. Mediasavodxonlik tushunchasi borasida turli fikrlar mavjud bo'lib, AQShning jamiyat xususidagi xalqaro ensiklopediyasida qayd etilishicha, “Media savodxonlik — inson jamiyatdagi fuqaro sifatidagi mas'uliyatini his qilgan holda faol va savodli bo'lishi, media matnlarni qabul qila olishi, yaratishi, tahlil eta olishi va baholashi, zamonaviy mediani ijtimoiy-madaniy va siyosiy mazmunini tushuna olishi demakdir”. Mediasavodxonlikning maqsadi har bir medianing ustuvorliklari va kamchiliklarini tushungan holda ular tomonidan tarqatilayotgan axborotni saralay bilish va zarurini qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish bo'lsa, asosiy vazifasi insonlar tomonidan iste'mol qilinadigan har qanday axborotning manipulyativ kuchini anglagan holda undan chegaralanishdir.

Hozirgi kunda yoshlarda mediasavodxonlik va mediamadaniyat ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirish juda muhim sanaladi. Ayniqsa internet va media olamining keng qamrovli ekanini hisobga olsak yoshlarning ongini buzuvchi, ularni vayronkor g'oyalar bilan o'z domiga tortuvchi kuchlar juda bisyordir. Bugungi kunda media, ya'ni ommaviy axborot vositalari, kino, teatr, san'atning turlari, madaniyat sarchashmalari, internet orqali uzatilayotgan har qanday ma'lumot inson ongiga o'zining ma'lum bir ta'sirini o'tkazib, uning dunyoqarashini o'zgartirishga sabab bo'lmoqda. Yuqorida tilga olingan tushunchalarning qo'llanilishi va bugungi kunda mediata'lim, mediasavodxonlik, media tanqid va mediani o'rganishga bo'lgan intilishning asosiy maqsadi ham axborotning yaratilishi, uning tarqalish jarayonini tushunib yetish, tijorat, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va madaniy maqsadlarda tarqatilayotgan axborotning mohiyatini anglagan holda uni baholay olishdir.

Fikrimcha, ayni paytda mediata'lim va mediamadaniyat asoslarini har bir ta'lim muassasasiga o'quv dasturiga kiritish, o'quvchi va yoshlarga maktablarda ta'lim jarayonida uning asoslarini interaktiv, turli o'yinlar shaklida tushuntirish, o'sib kelayotgan avlod tomonidan shiddatli axborot oqimida zarurini tanlash va unga tanqidiy yondashgan holda baholay olish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida yoshlarning kelajakdagi fuqarolik pozitsiyasini yanada mustahkamlanishiga, jahonda yuz berayotgan voqea-hodisalarni xolis baholab, to'g'ri qaror qabul qila olishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Bugungi axborot bilan to'yingan jamiyat va chegarasiz axborot almashinuvi sharoitida

⁴ G.Samandarova. “Media va axborot savodxonligi”. Ma'rifat.uz 20/06/2022.

jurnalistlar va yoshlarning xolisligi hamda mediasavodxonligi masalasi o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu holda yangiliklar bo‘limi jurnalistlari va tahririyatlariga factchecking tekshirilgan va yangi samarali usullaridan, shuningdek, fake yangiliklarini identifikatsiya qilish vositalaridan foydalangan holda axborotni tekshirish ishlarini muntazam ravishda takomillashtirish talab qilinadi. Bunda ushbu vazifani bajarish uchun jurnalistlar jamoa bo‘lib ishlashi muhim ahamiyatga ega. Bu narsa shuning uchun ham kerakki, mass-media va axborot texnologiyalarining insonlar hayotiga ta‘siri o‘z-o‘zidan munosabati bilan xalqaro hamjamiyat insonni axborot jamiyatida yashashga tayyorlash muammolari haqida bosh qotirmoqda va ushbu qarash global darajada YUNESKO va IFLA hujjatlarida, jumladan, Mediata‘lim bo‘yicha Gryunvald deklaratsiyasida (1982), “Axborot savodxonligi va butun umr davomida ta‘lim olish bo‘yicha Aleksandriya deklaratsiyasi”da (2005), “Parij dasturi va mediata‘lim bo‘yicha 12 tavsia” (2007) hujjatlarida o‘z ifodasini topgan.⁵

2023-yilning 18-mart kuni zamonaviy Yangi Toshkent shahri qurilishiga tamal toshi qo‘yish marosimida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, davlat va jamoat tashkiloti vakillari, nuronilar, ziyolilar va yoshlar bilan uchrashdi. Uchrashuvda – “Poytaxtimizning barqaror rivojlanishini o‘ylab, kamida 15-20 yil oldin rejalarimizni aniq belgilab olishimiz zarur. Chuqur o‘ylangan urbanizatsiya siyosati – turmush sharoiti, iqtisodiy rivojlanishga, odamlar kayfiyati va madaniyatiga juda katta ta‘sir ko‘rsatadi, – dedi, davlat rahbari. Ushbu tarixiy kunda men ham ishtirok etib, Yangi Toshkentning porloq kelajagi uchun o‘z takliflarimni bildirdim. Bugungi kunda endi shakllanayotgan yoshlarni turli axborotlarning salbiy ta‘siridan himoya qilish va ularning sog‘ligini asrash muammosi dunyodagi eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Yoshlarga ularning atrofini o‘rab turgan olam haqidagi ma‘lumotlarni beruvchi asosiy manbalarga esa, matbuot, televidenie, radio, OAV va boshqalar kiradi. Bugungi yosh avlod ongiga ulkan axborot oqimi ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shuning uchun ulardagi mediasavodxonlik va mediamadaniyat kabi tushunchalarni rivojlantirish juda muhim deb hisoblayman. Shulardan kelib chiqib taklifim shundan iborat bo‘ldiki, bugungi kunda yoshlar orasida eng dolzarb mavzulardan biri mediasavodxonlik yo‘nalishida ilm qilish va tahliliy tadqiqotlar olib borish. Bu yo‘nalishni xalqaro tajribalar asosida o‘rganib, o‘zimizda amaliyotda qo‘llamoqchi ekanligimni aytganimda davlatimiz rahbari tomonidan takliflarim qo‘llab-quvvatlanib, Prezident hisobidan shu kunning o‘zidayoq O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutiga tayanch doktoranturaga qabul qilindim.

“Zamon shiddat bilan rivojlanmoqda. Men doim ta‘kidlayman, ommaviy axborot vositalari mening do‘stlarim deb, mazkur dolzarb mavzuda ilm qilayotgan ekansiz, men sizdan minnatdorman” – dedi davlatimiz rahbari. Bunday yuksak ishonch va qo‘llab-quvvatlashdan o‘zim uchun katta kuch hamda motivatsiya oldim. Muhtaram Prezidentimiz biz yoshlarga barcha imkoniyatlarni yaratib beryaptilar, endi biz ham ushbu ishonchni oqlagan holda bor kuchimiz va g‘ayratimiz bilan Vatanimiz ravnaqi uchun harakat qilmog‘imiz darkor.

Asosiy xulosa shundan iboratki, biz hammamiz har kuni media olamning mediasavodxonlik va mediamadaniyat muammolariga duch kelamiz. Yoshlar tarbiyasida mediasavodxonlik madaniyatini takomillashtirishning samarali omillarini topish va amaliyotga joriy etish soha mutaxassislarining ustuvor vazifalariga kiradi. Yoshlarga bunday qiyin sharoitda media olamdan oqilona foydalanish qoidalari va o‘z-o‘zini himoya eta olishni o‘rgatish zamon talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev: yoshlar tarbiyasi – eng muhim masalalardan. Standart.uz 2017/16/06.
2. Медиа-и информационная грамотность в обществах знания/Сост. Кузьмин Е.И., Паршакова А.Б.- М.:МЦБС,2013.-С.29.
3. G.Samandarova. “Media va axborot savodxonligi”. Ma‘rifat.uz 20/06/2022
4. Yangi O‘zbekistonni yoshlar bilan birga barpo etamiz! Yuz.uz rasmiy sayti. 2020-yil 26-dekabr.

⁵ Jurnalistikada media va axborot savodxonligi: jurnalistlar va media sohasida ta‘lim beruvchilar uchun qo‘llanma/N.Muratova, E.Grilya, D.Mirzaxmedova.-T.:Baktria press, 2019.- 18b.

5. Jurnalistikada media va axborot savodxonligi: jurnalistlar va media sohasida ta'lim beruvchilar uchun qo'llanma/N.Muratova.,E.Grilz.,D.Mirzaxmedova.-T.:Baktria press, 2019.- 18b.
6. Shermanov, E. "Role of mass media in the formation of participatory education in the context of globalization." (2021).
7. Шерманов, Элдор. "ИНСОН–ЎЗ ХАЛҚИ ТАҚДИРИГА ЛОҚАЙДЛИГИ ИЖТИМИЙ-ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА." *Scientific progress* 3.6 (2022): 64-70.
8. Нуруллаев, А. С. "К ВОПРОСУ МЕТОДОЛОГИИ ТЕХНОЛОГИИ РЕАЛИЗАЦИИ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ." *Экономика и социум* 8 (99) (2022): 268-278.
9. Нуруллаев, Абдулазиз. "Мировой страховой рынок и тенденции его развития." *Архив научных исследований* 4.1 (2022).
10. Нуруллаев, А. С. "Вопросы страхования фермерских хозяйств в Узбекистане." *Актуальные проблемы современной науки* 2 (2004): 116.
11. Nurullaev, Abdulaziz Sirojiddinovich. "The Model of Insurance Protection of Business in the Agricultural Sector in the Context of Institutional Transformations." *International Journal of Business, Economics and Management* 4.2: 344-349.
12. NURULLAEV, AS. "To the Question of Methodological Bases of Future Harvest Insurance in Agriculture." *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology* 7.05: 329-333.
13. Nurullaev, Abdulaziz Sirozhiddinovich. "Improvement of agricultural insurance as a factor of development of agrarian industry in the country." *CREATION OF ETHNOGRAPHIES WITH POPULAR TRADITIONS* 11.13: 45.
14. Нуруллаев, А. С. "ИЖТИМОЙ-МАДАНИЙ ФАОЛИЯТ БОШҚАРУВИДА МЕНЕЖМЕНТИНГ ЎРНИ." 95.
15. Kalkanatov, Asilbek. "PROFESSIONAL QUALIFICATION OF THE MANAGER IN THE CULTURAL FIELD." *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE* 2.9 (2023): 19-23.
16. Kalkanatov, Asilbek. "THE IMPORTANCE OF MANAGING THE PARTICIPATION OF CULTURAL AND ART INSTITUTIONS AND ORGANIZATIONS IN CULTURAL ACTIVITIES." *Journal of Innovation, Creativity and Art* 2.9 (2023): 7-10.
17. Abatbaevna, Saparbaeva Gulshira, and Qolqanatov Asilbek Nazarbaevich. "History of the Development of Spiritual and Educational Processes in Karakalpakstan." (2023).
18. ЮЛДАШЕВА, Манзура, and Асылбек КОЛКАНАТОВ. "ПУТИ ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ В СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ СРЕДЕ." *Journal of Culture and Art* 1.1 (2023): 16-20.
19. Zokirovich, Muminmirzo Kholmuminov, and Asilbek Kolkanatov Nazarbaevich. "A LOOK AT THE HISTORY OF CLUB ESTABLISHMENTS AND CULTURAL AND EDUCATIONAL PROCESS IN UZBEKISTAN." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.2 (2022): 37-44.
20. Юлдашева, Манзура, and Асылбек Колканатов. "OILAVIY DAM OLISH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOY VA MADANIY MARKETING." *Scientific journal of the Fergana State University* 3 (2022): 6-6.
21. Xolmo'Minov, Mo'Minmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "MUFASSAL MUSHOHADALAR ME'MORIDAN MUFASSAL MUSHOHADALAR MEROJI." *Oriental Art and Culture* 3.2 (2022): 568-580.

22. Yuldasheva, Manzura, and Asilbek Qolqanatov. "O 'ZBEKISTONDA MUZEY MENEJMENTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH XUSUSIYATLARI." *Oriental Art and Culture* 3.1 (2022): 254-260.
23. Xolmo'Minov, Mo'Minmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "O'ZBEKISTONDA MADANIY-MA'RIFIY ISHLAR VA KUTUBXONALAR FAOLIYATI (XX ASR TAJRIBALARIDAN)." *Oriental Art and Culture* 3.1 (2022): 281-290.
24. Kholmuminov, Muminmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "The Formation of the First Libraries in Uzbekistan and the Role of Increasing the Cultural and Educational Awareness of the Population." *International Journal on Integrated Education* 4.12 (2021): 146-151.
25. Kolkanatov, Asilbek. "IFTIKHORI TIMSOLI TUMOR BRANCH." *JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH* 2.11 (2023): 67-69.
26. Nazarbay o'g'li, Qolqanatov Asilbek. "OMMAVIY TOMOSHA MUASSASALARI FAOLIYATI TAHLILI." *Academic Integrity and Lifelong Learning (France)* 2 (2023): 15-21.
27. Kalkanatov, Asilbek, Shahabatdin Makhamatdinov, and Islam Urazbaev. "ACTIVITIES OF NEW KARAKALPAKSTAN CULTURAL CENTERS: REFORM AND ANALYSIS." *Art and Design: Social Science* 3.01 (2023): 1-4.
28. Xolmo'Minov, Mo'Minmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "HIMMATNING QIYMATI ILM VA TAFAKKUR XAZINASI." *World of Philology* 2.1 (2023): 59-64.
29. Nazarbay o'g'li, Qolqanatov Asilbek. "OMMAVIY TOMOSHA MUASSASALARI FAOLIYATI TAHLILI." *Academic Integrity and Lifelong Learning (France)* 2 (2023): 15-21.
30. Nazarbai, Kolkanatov Asilbek. "NEW VOICE IN UZBEK DIRECTION." *Journal of Innovation, Creativity and Art* 2.12 (2023): 65-70.
31. Xolmo'minov, Mo'minmirzo Zokir O'g'Li. "MADANIYAT MARKAZLARIDA TO'GARAKLARNI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI." *Oriental Art and Culture* 3.3 (2022): 102-107.
32. Nilufar, Maratova, and Muminmirzo Kholmuminov. "Requirements for Young Leaders in Culture and Arts Management." *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education* 2.3 (2023): 5-9.
33. Mo'Minmirzo Zokir, O'G'Li. "TEATR FAOLIYATIDA BOSHQARUV JARAYONLARINI TASHKIL ETISH USULLARI." *Oriental Art and Culture* 3.2 (2022): 57-62.
34. Холмўминов, Мўминмирзо Зокир Ўғли. "САНЪАТ МЕНЕЖМЕНТИ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА МЕЪЁРИЙ ҲУЖЖАТЛАРНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ." *Oriental Art and Culture* 2.4 (2021): 123-130.
35. Togonboyeva, Ziyodakhan, and Mominmirza Kholmominov. "LANGUAGE ISSUES IN BEHBUDI." *International Bulletin of Applied Science and Technology* 3.4 (2023): 253-254.
36. Xolmo'minov, Mo'minmirzo Zokir O'g'Li, and Nilufar Laziz Qizi Maratova. "MADANIYAT VA SAN'AT SOHASIDA LOYIHALARGA MABLAG 'JALB ETISH MASALALARI." *Oriental Art and Culture* 3.3 (2022): 114-118.
37. Xolmo'minov, Mo'minmirzo Zokir O'g'Li. "MADANIYAT BO 'LIM MUDIRLARINING ISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI." *Oriental Art and Culture* 3.3 (2022): 95-101.